


Qorako‘l tuman Axborot kutubxona markazi
Axborot – bibliografiya xizmati



Birinchi o‘zbek professori

(Abdurauf Fitrat tavalludining (1886-1938) 140 yilligiga bag‘ishlab)

Kitobxonga esdalik

Qorako‘l – 2026

Miya o‘zgarmaguncha boshqa
o‘zgarishlar negiz tutmas

Abdurauf Fitrat

So‘z boshi

O‘zbek tarixchisi, filolog, tarjimon, yozuvchi, dramaturg va shoir, zamonaviy o‘zbek tili va adabiyoti asoschilaridan biri, O‘rta Osiyo jadidchiligining taniqli vakili, birinchi o‘zbek professori – Abdurauf Fitrat 1886-yilda Buxoro shahrida ziyoli oilasida tug‘ilgan. Adibning otasi savdogarchilik bilan shug‘ullangan bo‘lib, Jadidchilik milliy ma‘rifatparvarlik harakatining tarafdori bo‘lgan.

Abdurauf Fitrat Turkiyada ta‘lim olgan. Inqilobga qadar O‘rta Osiyoni Rossiyadan ozod qilinishi harakatlarida faol qatnashgan, politsiya nazorati ostida bo‘lgan. Turkiyadagi „Yosh turklar“ harakatidan ilhomlanib, Buxoroda „Yosh buxoroliklar“ partiyasini tuzgan, uning ma‘naviy rahnamosiga aylangan. Do‘sti va maslakdoshi Munzim bilan hamkorlikda buxorolik 70 nafar yosh turkistonliklarni Germaniyaning bir qator oliy ta‘lim muassasalariga o‘qishga yuborgan.

Yosh Abdurauf asosan onasi Mustafafo Bibi (Bibijon) tarbiyasida qoladi, undan Navoiy, Uvaysiy, Zebunniso, Bedil, Fuzuliy kabi yirik shoirlarning g‘azallarini tinglaydi. Dastlab eski maktabda, keyinchalik, Buxorodagi Mir Arab madrasasida tahsil olgan. 1902-1903-yillarda haj safariga chiqqan, uni ado etgach Arabiston, Anatoliya (zamonaviy Turkiya), Kavkazorti, Eron, Afg‘oniston, Hindiston bo‘ylab sayohat qilgan. 1906-1908-yillarda Rossiyaning Qozon, Nijniy Novgorod, Yaroslavl, Moskva, Petrograd shaharlarida bo‘lgan. XX asr boshlarida vujudga kelgan. "Tarbiyaiatfol" jamiyati ko‘magida 1908-1913-yillarda Istanbuldagi Voizon madrasasida tahsil olgan va qizg‘in ijod qilgan. Madrasada unga mudarris Yusuf Akchura ta‘lim bergan.

Fitrat o‘qishni Istanbulda davom ettirib yurgan kezlarida, hamyurtlari bilan birgalikda „Buxoro ta‘limi maorif jamiyati“ni tuzgan. Bu jamiyat buxoroliklarning o‘zaro moddiy-ma‘naviy uyushmasi vazifasini bajargan hamda Buxoro va Turkiston maorifining olg‘a siljishiga doir bir qator ishlarni amalga oshirgan. Bu davrda Turkiya „Yosh turklar“ inqilobidan mast davrni o‘z boshidan kechirardi. Turkiyadagi bunday inqilobiy muhit albatta yosh Fitratga ham ijobiy ta‘sir ko‘rsatdi. U siyosat maydoniga sho‘ng‘ib ketdi. Bu yerda Fitrat Sharq adabiyoti, san‘ati, tarixini chuqur va atroflicha o‘rganadi. Ilg‘or taraqqiyparvar turk adabiyoti vakillari, turk adabiyoti orqali esa G‘arb adabiyoti bilan yaqindan tanishadi. G‘arb va Sharq xalqlari madaniyati, adabiyotlari o‘rtasidagi farqlarni o‘z ko‘zi bilan ko‘radi, uning sabablarini teranroq anglaydi.

Jadidchilik faoliyati.

Fitrat vataniga qaytgach, Buxoro jadidlarining tashkilotchilaridan biri sifatida xalqni ma'rifat va madaniyatdan bahramand qilish uchun astoydil kurashdi, xususan u Buxoroning turli tumanlarida o'qituvchilik qilib, jadidchilik g'oyalarini keng targ'ib etdi. 1915-yildan „Yosh buxoroliklar“ harakatining so'l qanotiga boshchilik qildi. 1916-yilga qadar buxorolik jadidlar yakdil va yagona jabha bo'lib ish olib borgan bo'lsalar, keyinchalik ular ikkiga bo'linib ketadilar. Abdulvohid Burhonov boshchiligidagi jadidlarning bir qismi eski tarzda faqat ma'rifat-madaniyat tarqatish yo'lini tutgan bo'lsa, ularning boshqa bo'lari Fitrat, Fayzulla Xo'jayev kabi chet mamlakatlarda o'qib kelgan yoshlar omma o'rtasida ma'rifat va madaniyat tarqatish bilan birga amirga qarshi kurashishni ham yoqlab chiqadilar. Bunday bo'linishning asosiy sabablari:

Fitrat 1917-yilgi fevral voqealaridan so'ng jadidlarning Buxorodagi ahvoli murakkablashgach, Samarqandga ko'chib borib 1917-yil apreldan 1918-yil martigacha chiqib turgan „Hurriyat“ gazetasiga muharrirlik qiladi (1917-yilgi 27-sonidan 1918-yilgi 87-sonigacha), gazeta ishlarini rivojlantirish maqsadida Fitrat nashriyotga O'rta Osiyo jadidchiligining darg'asi, muftiy Mahmudxo'ja Behbudiyani taklif etadi. Ayrim ma'lumotlarga qaraganda Fitrat shu-yillarda „Ittihodi taraqqiy“ tashkiloti Eski Buxoro bo'limining raisi ham bo'lgan.

Buxoro Xalq Sovet Respublikasi tashkil topishi bilan Fitrat 1921-yilda Buxoroda maorif noziri vazifasida ish boshlaydi. 1922-yilda xorijiy (tashqi ishlar) noziri, Xalq xo'jaligi Kengashi raisi, Markaziy Ijroya Qo'mitasi raisi o'rinbosari, Xalq nozirlari sho'rosi raisi o'rinbosari, Hukumat plan va smeta tashkiliy hay'atining raisi, BXSR mehnat kengashining Prezidium a'zosi va boshqa lavozimlarda xizmat qildi. Ikki yil davomida Buxoro Xalq Respublikasida ta'lim vaziri va iqtisodiy rivojlanish kengashining rahbari sifatida faoliyat yuritgan. U shu davrda Buxoro Xalq Sovet Respublikasi mablag'lari hisobiga 70 nafar turkistonlik istiqbolli yoshlarning Germaniyaga borib o'qishi, Buxoroda Sharq musiqasi maktabining tashkil etilishi, fan va madaniyatga doir xalq qo'lida sochilib yotgan noyob qo'lyozmalarni to'plashda tashabbuskor bo'ldi. Fitratning sa'y-harakatlari bilan Buxoro Xalq Sovet Respublikasida o'zbek tili davlat tili deb e'lon qilindi. Davlat teatri tashkil qilinib, bu teatrda ishlash uchun Toshkentdan Mannon Uyg'ur va Cho'lpon, vaqf ishlarini boshqarish uchun esa Munavvar Qori Abdurashidxonov taklif etildi. Ammo 1923-yilda Yan Rudzutak boshchiligida Moskvadan kelgan komissiya Fitratni ishdan olib, Rossiyaga chaqirib olingan“ deb e'lon qildi va Fitrat 1923—1927-yillarda Moskvadagi Sharqshunoslik instituti (1921-yilgacha Sharq tillari instituti deb nomlangan)da ishladi, ilm bilan shug'ullandi. Leningrad Davlat universitetining Sharq fakultetida Turk, arab, fors tili va adabiyoti, madaniyatidan talabalarga dars berdi. Leningrad Davlat universiteti professorligiga saylandi. „Abulfayzxon“, „Bedil“, „Qiyomat“, „Shaytonning Tangriga isyoni“ kabi asarlar yozib, chop ettirdi. 1927-yilning boshida Rossiyadan qaytgach, 1937-yilga qadar Samarqanddagi Oliy pedagogika instituti (hozirgi Samarqand Davlat universiteti) hamda Toshkentdagi Til va adabiyot institutida faoliyat ko'rsatdi.

Fitrat o‘z hayoti davomida yuzlab ijtimoiy-publitsistik maqolalar, o‘nlab ijtimoiy-siyosiy va ilmiy risolalar yaratdi. U birgina Turkistonda emas, Afg‘oniston, Hindiston, Turkiya, Kavkaz, Volgabo‘yi matbuotida ham faol ishtirok etdi.

Badiiy va ilmiy adabiyot

Fitratning adabiy merosi rang-barang. U adib sifatida badiiy ijodning barcha turlarida qalam tebratibgina qolmay, o‘zbek adabiyotining yangi janr va turlar bilan boyishi, she‘r tuzilishining isloh etilishi, adabiy realizmning teranlashishi, davr, jamiyat va xalq hayoti bilan bog‘liq bo‘lgan muhim ijtimoiy muammolarning o‘zbek adabiyotida badiiy talqin etilishiga ulkan hissa qo‘shdi.

U „Munozara“ (dastlabki nomi „Hindistonda bir farangi ila buxorolik bir mudarrisning bir necha masalalar ham usuli jadid xususida qilgan munozarasi“) asarini Turkiyaga borishdan oldin, 1905-1907-yillarda yaratgan. „Sayha“ („Chorlov“, „Na‘ra“) (fors tilida), „Sayyohi hindi“ („Bayonoti sayyohi hindi“), „Rahbari najot“, „Tarixi Islom“ asarlarini esa Turkiyada tahsil paytida yozgan va „Munozara“ 1908-yilda, „Sayha“ 1910-yilda, „Sayyohihindi“ 1913 yilda Istanbulda bosilibchiqqan, „Rahbarinajot“ va „Oila“ 1915-1916-yillarda Bokuda nashr qilingan. Bu asarlar o‘sha davrdayoq xalq orasida keng tarqaldi. Horijiy tillarga ham o‘girildi. Masalan, „Munozara“ 1909-1914-yillar orasida turk, ozarbayjon tillarida, „Sayyohi hindi“ rus tilida chop etilgan. „Rahbari najot“ni esa do‘sti, shoir va noshir Abdulvohid Burhonov Sankt-Peterburgda nashrdan chiqargan. Bulardan tashqari uning „Mavludi Sharif“, „Abo Muslim“, „Begijon“ asarlari va dastlabki she‘rlari „Oyna“, „Taraqqiy“, „Sadoi Turkiston“, „Turon“, „Hurriyat“, „Buxoroi Sharif“ kabi gazeta va jurnallar sahifalarida e‘lon qilingan.

Uning „Munozara“ va „Sayyohi hindi“ asarlari XX asr boshlarida Turkistondagi milliy uyg‘onish harakatining norasmiy dasturi bo‘lib xizmat qilgan va yoshlar dunyoqarashining keskin o‘zgarishi va ularning jadidlar safiga kelib qo‘shilishiga sabab bo‘lgan. Keyinchalik bu asarlar orqali Fitratni millatchilikda, turkparastlikda va islomparastlikda ayblashgan.

Fitratning bizgacha yetib kelgan o‘zbek tilidagi she‘rlari, 1917- va undan keyingi davrlarga oid. Ma‘lumki, fevral inqilobidan keyin Turkiston xalqlarining mustaqillikka erishishlari uchun juda qulay fursat tug‘ilgan. Fitrat shu davrda xalqni mustamlakachilik kishanlarini parchalab, milliy istiqloq uchun kurashga da‘vat etuvchi she‘rlar yozishga kirishgan. Ammo an‘anaviy aruz vazni, uning nazarida, bunday zamonaviy g‘oyani ifodalash, xalqni oyoqqa turg‘azish va safarbar etish kuchiga ega emas edi. Shuning uchun ham Fitrat turk va tatar she‘riyatlarida shakllangan, o‘zbek xalq og‘zaki she‘riyatida ayrim unsurlari bo‘lgan sochmani milliy adabiyotimizga olib kirdi. O‘z ona diyorini ozod va hur ko‘rishni orzu qilgan shoir „Yurt qayg‘usi“ deb nomlangan bir she‘r va to‘rtta sochma yozib, ularda hurriyat uchun kurash g‘oyasini baralla kuylaydi. Ijodkor mazkur sochmalarida Turkistonni xo‘rlangan va xorlangan Ona obrazida tasvirlab, bu jabrdiyda Onani zulmkorlardan xalos etish uchun Amir Temur singari insonlarni qo‘msaydi.

U 1917-yillarda „Mirrix yulduziga“, „Sharq“, „Shoir“ kabi sheʼrlarni yaratib, Turkistonni endi „qizil mustamlaka“ga aylantira boshlagan bolsheviklarga va ular barpo etayotgan tuzumga nafrat tuygʻusini ifodaladi. Bundan tashqari Fitrat barmoq vaznida yozilgan mazkur sheʼrlari bilan xalq ogʻzaki sheʼriyatining mulki boʻlgan barmoqni isloh etib, Choʻlpon bilan birga uni yozma adabiyotga olib kirdi va unga yangi hayot bagʻishladi.

1922-yilda Fitrat tashabbusi bilan „Oʻzbek yosh shoirlari“ sheʼriy toʻplami bosilib chiqdi. Bu toʻplamdan Fitrat asarlari bilan birga oʻsha davrda qizgʻin ijod qilgan Choʻlpon, Botu va Elbekning sheʼrlari ham oʻrin olgan va xalq orasida katta qiziqish bilan oʻqilgan.

Fitrat nasrda ham samarali ijod qilgan. XX asrning 10-yillarida sahna asari sifatida namoyish etilgan „Munozara“ Fitratning nasrdagi ilk asaridir. „Munozara“ ham „Sayyohi hindi“ ham Fitrat publitsistikasining yorqin namunalaridandir. Fitrat keyinchalik ham ijtimoiy, huquqiy, maʼnaviy hamda estetik qarashlarini ifodalashda publitsistikadan samarali foydalandi. Faqat 20-yillarning oʻrtalariga kelibgina u „sof“ nasriy asarlarni yarata boshladi („Qiyomat“, „Meʼroj“, „Oq mozor“, „Zayd va Zaynab“, „Zahroning imoni“ va boshqalar). „Munozara“ va „Sayyohi hindi“ asarlarida koʻtarilgan milliy qoloqlik, diniy fanatizm mavzusi 20-yillar uchun ham dolzarb ahamiyatga ega edi. Fitrat bu hikoyalarida diniy syujetlardan din taʼsiriga qarshi kurashda foydalandi. Bu asarlar, ayniqsa, 1930-yilda qayta ishlangan „Qiyomat“ xayoliy hikoyasi oʻzbek adabiyotida fantastikaning tugʻilishi va shakllanishida milliy manba boʻlib xizmat qildi.

Dramaturgiya

Fitrat dramaturgiyasi ham oʻziga xosligi bilan ajralib turadi. U 1916-yildan boshlab teatr uchun koʻplab asarlar yaratdi. Ammo uning nafaqat 1916—1918-yillarda yozgan „Begijon“, „Qon“, „Abo Muslim“, „Temur sagʻanasi“, „Oʻgʻizxon“ singari pyesalari, hatto 1934-yilda yozgan „Toʻlqin“ opera librettosi ham bizgacha yetib kelmagan. Maʼlumki, Fitratning 5 pardali „Begijon“ pyesasida dehqonlarning xon zulmiga qarshi koʻtargan isyonlari tasvir etilgan. „Temur sagʻanasi“ pyesasida esa muallifning „Yurt qaygʻusi (Temur oldinda)“ sochmasidagi istiqlol uchun kurash gʻoyasi oʻzining badiiy tajassumini topgan. Fitrat Moskvadalik paytida „Abulfayzxon“, „Shaytonning Tangriga isyoni“ (1924), ona yurtiga qaytgach esa „Arslon“, „Toʻlqin“ (1934) pyesalarini yozdi.

Vafoti

Fitrat ilgʻor demokratik gʻoya va fikrlari uchun koʻpchilik jadidlar qatorida shakkoklik va isyonkorlikda ayblandi. Chor maʼmurlari esa uni mustamlakachilikka qarshi turganlikda aybladilar, kommunistik mafkura hukmron boʻlgan shoʻrolar davrida esa, millatchilikda, panturkizm gʻoyasi tarafdori, „xalq dushmani“ degan tuhmatlar bilan aybladilar. Professor H.Yoqubovning hikoya qilishicha, Fitratni 1937-yilgacha uning doʻsti Fayzulla Xoʻjayev oʻz himoyasiga olib kelgan. 1937-yilda koʻpchilik qatori Fitrat ham NKVD tomonidan qamoqqa


olingan. Iosif Stalinning 1938-yil 28-martdagi „Otuvga e’lon qilinganlar ro‘yxati“ga tushgan.

Abdurauf Abdurahim o‘g‘li Fitrat 1938-yil 4-oktyabr kuni Toshkent shahrining hozirgi Yunusobod tumani Bo‘zsuv qirg‘og‘idagi qatlgohda otib o‘ldirildi. Uni o‘limga mahkum qilish haqidagi sud qarori bir kundan keyin ya’ni 1938-yilning 5-oktyabrda imzolandi. 1963-yil Iosif Stalin vafotidan so‘ng Fitrat nomi oqlandi.

1991-yil 25-sentabrda Abdurauf Fitratga o‘zbek dramaturgiyasini rivojlantirishdagi, realistik adabiy tanqidchilik hamda adabiyotshunoslik maktabiga asos solishdagi xizmatlari uchun Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston Respublikasi Davlat mukofoti berildi. Mustaqillik ordeni berildi. Toshkent va Buxoroda Fitrat nomidagi ko‘chalar, maktablar ochildi. Buxoro shahrida Fitrat bog‘i va uy-muzeyi tashkil qilindi (1996). Buxoro shahrida Fitrat haykali o‘rnatildi. 1996-yilda Abdurauf Fitrat tavalludining 110-yilligi mamlakat miqyosida nishonlandi, „O‘zbekiston pochta“ tomonidan Fitratga bag‘ishlangan pochta markalari chiqarildi.

Ushbu esdaligimizni tuzishdan maqsad, buyuk ajdodlarimiz faoliyati va ma’naviy me’rosini yanada chuqurroq o‘rganish, ularning ma’rifatparvarlik borasidagi o‘lmas g‘oyaviy qarashlarini yosh avlod ongi va shuuriga singdirish, xalqimiz orasida keng targ‘ib etishdir.

Ushbu bibliografik qo‘llanma keng kitobxonlar ommasiga mo‘ljallangan.




**Fitrat, A. Abulfayzxon[Matn]:p'yesa /
Abdurauf Fitrat. –Toshkent:Yosh kuch, 2019.
– 64 b.**

Fitrat dramaturgiyasida tarixiy mavzu keng o‘rin olgan. Dramaturgning mashhur asarlari qatoridan o‘rin olgan "Abulfayzxon" pyesasi adabiyotimizda tarixiy mavzuda yozilgan birinchi drama hisoblanadi. Fitrat adabiy-badiiy ijodining cho‘qqisi hisoblangan mazkur fojia voqea mazmuni va tarixiy faktlarga boy, real asar bo‘lishi bilan jozibalidir.

Pyesada ashtarxoniylar sulolasining so‘nggi vakili Abulfayzxon davrida Buxoro o‘lkasida yuz bergan fojia aks ettiriladi. Asarda Abulfayzxonning toj-taxtga da’vogarlik qilgan barcha merosxo‘rlar otasi, og‘a-inlari, yaqin va uzoq qarindoshurug‘larini o‘ldirib hokimiyat sari kelishi katta badiiy kuch bilan gavdalantirilgan.

Buxoro taxtini qo‘lga kiritgan Abulfayzxon shubha va ta‘qib vasvasiga tushib, hokimiyatni qo‘lga kiritishga ko‘maklashgan ishonchli safdoshlari, o‘ziga sadoqatli jangchi lashkarboshlarni, viloyat hokimlarini qirg‘in qilishga kirishadi.

"Abulfayzxon" fojiasi 20-yillar o‘zbek adabiyotining katta yutug‘i bo‘lib qoldi.




Fitrat, A. Oila yoki oila boshqarish tartiblari

[Matn] / Abdurauf Fitrat. –

Toshkent:Cho‘lpon, 2019. – 144 b.

Ulug‘ adibimiz Abdurauf Fitratning badiiy va ilmiy asarlari bilan birga axloqiy masalalarga doir bir qator risolalari bor. Ularda komil inson shaxsini shakllantirish bilan bog‘liq muammolar va ularning yechimi aks etgan. Jamiyatning asosi bo‘lgan oila, uning inson hayotidagi o‘rni, oila boshlig‘i va a‘zolarining vazifalari hamda oilaviy tarbiya muammolari o‘z aksini topgan mazkur risola keng kitobxonlar ommasiga mo‘ljallangan.




Fitrat, A. Yurt qayg‘usi [Matn]: she‘rlar, drama, qissa /Abdurauf Fitrat. – Toshkent: “Turon zamin” nashriyoti MCHJ, 2024. – 160 b.

Bundan qirq-ellik yil mugaddam jadidlar nomi kopchilik uchun notanish bo‘lgan bo‘lsa, hozirda har bir yurtdoshimiz jadidlar va ular vujudga keltirgan marifiy harakatlar haqida tobora ko‘proq ma‘lumotlarga ega bo‘lishmoqda. Jadidlar o‘z vaqtida jamiyat tanazzulining asosiy sababi - aholining ilm-marifatsizligiga qarshi munosib kurash olib borishgan.

Ularning har biri millatimiz qahramoni, ulardan qolgan har bir ma'naviy me'ros esa oltindan ham qimmatdir. Shu o‘rinda ijodiy jamoamiz bilan bir qator jadid namoyondalari asarlarini nashr etishga qaror qildik.

Ushbu to‘plamga Abdurauf Fitratning sara asarlari kiritilgan bo‘lib, ularni mutolaa etish jarayonida siz ham jadidlarning o‘sha vagtlardagi magsadlari, orzu-umidlari, dard-iztiroblarini yaqindan his etasiz, degan umiddamiz!



Fitrat, Abdurauf Abdurahim o‘g‘li[Matn]:she’rlar, nasriyasalar, dramalar, publitsistika, tilshunoslik va adabiyotshunoslikka oid maqolalar / Abdurauf Abdurahim o‘g‘li Fitrat;nashrga tayyorlovchi va so‘zboshi muallifi filologiya fanlari doktori, professor Hamidulla Boltaboyev. – Toshkent: “Zabarjad Media” , 2024. – 400 b.

Fitrat yozgan sahna asarlarida ham tarixiy o‘tmishga murojaat etganiga qaramay, bolsheviklarning Turkistonda olib borgan g‘ayrimilliy siyosatiga faol munosabat bildirib, zulm va zo‘ravonlikka asoslangan „yangi tuzum“ni keskin qoralagan. Fitrat ijodining shu davrdagi yetakchi motivi — bolshevizmga qarshi kurash g‘oyasi „Chin sevish“ (1920) pyesasida ayniqsa yorqin ifodalangan. Dramaturg Turkistonda Sho‘ro hokimiyati yillarida sodir bo‘layotgan fojeali voqealarni Britaniyaning mustamlakasi bo‘lgan Hindistonga ko‘chirib, ingliz mustamlakachilariga qarshi kurashayotgan hind istiqloqlolchilari siymosida, ma‘lum ma‘noda, o‘z vatandoshlari obrazini yaratdi. Javoharlal Neruning e’tirof etishicha, Fitratning bu asari hind xalqining mustamlakachilikka qarshi olib borgan kurashiga kuch va madad bergan.

Adabiyotlar

2023

Фитрат, А. Танланган асарлар. III жилд [Matn]: драмалар, публицистик мақолалар / Абдурауф Фитрат. Таҳрир хайъати: О.Шарафитдинов, Н.Каримов, Д.Алимова ва бошқ.: Изоҳлар муаллифи: Ҳ.Болтабоев; масъул муҳаррир: Б.Қосимов. – Тошкент: Маънавият, 2003. – 256 б.

2006

Фитрат, А. Танланган асарлар. IV жилд [Matn]: дарслик ва ўқув қўлланмалари, илмий мақола ва тадқиқотлар / Абдурауф Фитрат. Таҳрир хайъати: Т.Мирзаев, Н.Каримов, Д.Алимова ва бошқ.: масъул муҳаррир: Б. Қосимов; нашрга тайёрловчи ва изоҳлар муаллифи: Ҳ.Болтабоев. – Тошкент: Маънавият, 2006. – 336 б.

2010

Фитрат, А. Танланган асарлар. VI жилд [Matn]: илмий рисоалар / Абдурауф Фитрат; нашрга тайёрловчи ва изоҳлар муаллифи: Ҳ. Болтабоев. – Тошкент: Маънавият, 2010. – 304 б.

2019

Fitrat, A. Oila yoki oila boshqarish tartiblari [Matn] / Abdurauf Fitrat. – Toshkent: Cho‘lpon, 2019. – 144 b.

Fitrat, A. Abulfayzxon [Matn]: p‘yesa / Abdurauf Fitrat. – Toshkent: Yosh kuch, 2019. – 64 b.

2024

Fitrat, A. Yurt qayg‘usi [Matn]: she‘rlar, drama, qissa / Abdurauf Fitrat. – Toshkent: “Turon zamin” nashriyoti, MCHJ, 2024. -160 b.

Fitrat, A. She‘rlar, nasriy asarlar, dramalar, publisistika, tilshunoslik va adabiyotshunoslikka oid maqolalar [Matn] / Abdurauf Abdurauf o‘g‘li Fitrat. Nashrga tayyorlovchi va so‘zboshi muallifi filologiya fanlari doktori, professor Hamidulla Boltaboyev. – Toshkent: “Zabarjad Media”, 2024. – 400 b.

U haqida kitoblar

2020

Odob-axloq kitobi [Matn]: jadid adabiyoti namoyandalari / M. Behbudiy va boshq. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2020. – 192 b.

2022

Boltaboyev, H. Jadidlar. Abdurauf Fitrat [Matn]: risola / H. Boltaboyev. – Toshkent: Yoshlar nashriyot uyi, 2022. – 144 b.

2023

Jadid kulliyoti. O‘zbek yosh shoirlari [Matn]: she‘rlar to‘plami / A. Fitrat, A. Cho‘lpon, Botu, Elbek. So‘zboshi muallifi va tuzuvchi va nashrga tayyorlovchi Shahnoza Nazarova. Mas‘ul muharrir Naim Karimov. – Toshkent: “Zabarjad Media”, 2023. - 96 b.

Davriy nashrlarda chop etilgan maqolalar

2023

Шарипов, Р. Юрт қайғуси: [Абдурауф Фитрат ҳаёти ва фаолияти ҳақида] / Р.Шарипов // O‘zbekiston adabiyoti va san’ati. – 2023.- 10 ноя. – Б. 1-2

2024

Болтабоев, Ҳ. Ер масаласига доир уч васиқа:[Абдурауф Фитратнинг Ўрта Осиёда ер масаласига доир уч васиқа тавсифий мақоласи ҳақида] / Ҳ. Болтабоев // Jadid. – 2024.- 17 май. – Б. 5

Маҳмудов, Н. Фитрат – фидойи тилшунос: [Абдурауф Фитратнинг ўзбек тилшунослигига қўшган ҳиссаси тўғрисида] / Н.Маҳмудов // Jadid. – 2024.- 24 май. – Б. 7

Сайфуллаева, Р. Жадидлар ўгити:”Юрт обрўсин ёшлар сақлар”: [жадидларнинг меъросини ўрганиш ҳақида] / Р.Сайфуллаева // Янги Ўзбекистон. – 2024. – 2 июнь. – Б.6

Абдурашидов, З. Назод йўлини кўрсатган жадид:[Абдурауф Фитрат ҳаёти ва ижоди ҳақида] / З.Абдурашидов // Янги Ўзбекистон. – 2024. – 6 июнь. – Б.6

Қахрамонов, Қ. Жадид шеъриятининг етакчи мотивлари:[Абдулла Авлоний, Абдурауф Фитрат, Муҳаммадшариф Сўфизода ҳақида] / Қ.Қахрамонов // Янги Ўзбекистон. – 2024. – 1 июль. – Б.6

2026

Bayjol, B. Ikki dunyo saodati:[jadidlar faoliyati haqida] / Baxit Bayjol // Gulxan. – 2026. – №3. – В.27